

## 5 - SINF TARIXDAN HIKOYALAR. DEMO UM uchun.

CHSB – 4. Sana: \_\_\_\_\_

Sinf \_\_\_\_\_ O‘quvchining F.I.SH. \_\_\_\_\_

1. “Bolalar tinchlik haykali” qaysi shaharda o‘rnatilgan? (Bilish – 2 ball)

- A) Xirosima      B) Nagasaki      C) Tokio      D) Nagoya

2. Nega sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlarida yashovchi tinch aholi uning chekka

o‘lkalariga, jumladan, O‘zbekistonga ham ko‘chirib kelindi? (Bilish – 2 ball)

- A) Aholi sonining ko‘pligi sababli;

- B) O‘zbekiston rivojlangan davlat bo‘lgani uchun;

- C) Dushman bosib olishi mumkin bo‘lgan hududlardan aholini xavfsiz joylarga ko‘chirishdi;

- D) Ko‘chirib keltirilgan aholini ish bilan ta’minalash maqsadida.

3. YUNESKOning qarorgohi qaysi shaharda joylashgan? (Bilish – 2 ball)

- A) Milan      B) London      C) Jeneva      D) Parij

4. Insoniyat nima uchun Yer yuzida mustahkam tinchlik uchun kurashmog‘i kerak?

(Bilish – 2 ball)

- A) Biror bir xalq yer yuzida hukmronlik qilmasligi uchun;

- B) Ekologiya muammolari ko‘paymasligi uchun;

- C) Tabiiy ofatlar sodir bo‘lmasligi uchun;

- D) Ko‘plab begunoh odamlar vafot etib, shaharlar vayron bo‘lmasligi uchun.

5. O‘zbekiston Respublikasi ramzlarini tasdiqlangan sanalari bilan moslashtiring.

(Qo‘llash– 2,8 ball)

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i; 2) O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi;

- 3) O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi.

- a) 1992-yilning 2-iyulida,      b) 1992-yili 10-dekabrida,      c) 1991-yilning 18-noyabrida.

- A) 1- b, 2- c, 3- a;      B) 1- b, 2- c, 3- a;      C) 1-c, 2-a, 3-b;      D) 1- a, 2- b, 3- c.

6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadlarini aniqlang. (Qo‘llash– 2,8 ball)

- 1) butun dunyoda tinchlikni ta’minalash; 2) o‘limga sababchi bo‘ladigan kasalliklar bilan kasallanishning oldini olish uchun bolalarni emlash; 3) dunyo xalqlari o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini rivojlantirish; 4) bolalar o‘rtasida ochlikka, to‘yib ovqat yemaslikka va savodsizlikka qarshi kurashish; 5) dunyoda ocharchilik, kasallik va savodsizlikni tugatish borasida birgalikda harakat qilish; 6) bolalarning ko‘r bo‘lib qolishiga sabab bo‘luvchi «A» vitamin yetishmasligining oldini olish; 7) ekologiya halokatinining oldini olish; 8) inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarashni rag‘batlantirish.

- A) 1, 3, 5, 7, 8;      B) 2, 4, 6, 8;      C) 1, 2, 3, 6, 8;      D) 4, 5, 6, 7, 8.

7. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga ha yoki yo‘q deb javob bering (Qo‘llash – 2,8 ball)

Nº	Mulohaza uchun savol	H a	Yo‘q
1.	BMT 1945 yil 24-oktabrda tashkil topdi.		
2.	1946-yil Nagasaki shahriga atom bombasi tashlandi.		
3.	1993-yil Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ma’ruza qildi.		
4.	1997- yil I.Karimov YUNESKOning oltin medali bilan taqdirlandi.		

- A) 1- Yo‘q; 2- yo‘q; 3- yo‘q; 4- yo‘q;      B) 1- Ha; 2- yo‘q; 3- ha; 4- ha;

- C) 1- Yo‘q; 2- yo‘q; 3- yo‘q; 4- ha;      D) 1- Ha; 2- yo‘q; 3- ha; 4- yo‘q.

8. Quyida berilgan sanalar va sodir bo‘lgan muhim tarixiy voqealarni to‘g‘ri moslashtiring. (Qo‘llash-2,8 ball)

T/r	Muhim tarixiy sanalar		Ro'y bergan muhim tarixiy voqealar.
1.	1990-yil 24-mart	A	O'zbekiston Respublikasi BMTga a'zo bo'ldi
2.	1991-yil 18-noyabr	B	O'zbekiston tarixida ilk bor prezidentlik lavozimi ta'sis etildi.
3.	1992-yil 2-iyul	C	O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi.
4.	1992-yil 10-dekabr	D	O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilindi.
5.	1992-yil 2-mart	E	O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilindi.

- A) 1-B, 2-E, 3-D, 4-C, 5-A;      B) 1-C, 2-D, 3-E, 4-B, 5-A;  
 C) 1-A, 2-B, 3-C, 4-D, 5-E;      D) 1-B, 2-C, 3-A, 4-E, 5-D.

**9. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 1991-yildan boshlab (a) va 1992-yildan boshlab (b) birinchi kuni dam olish kuni deb belgilangan. (Qo'llash-2,8 ball)**

- A) Qurbon hayiti va Ramazon hayitlarining;      B) Mustaqillik kuni va Navro'z bayrami;  
 C) Ramazon hayiti va Qurbon hayitlarining;      D) Navro'z bayrami va Qurbon hayitlarining.

**10. Mustaqil O'zbekiston qaysi chet davlatlar bilan o'zaro tenglik asosida hamkorlik qilib kelmoqda. (Qo'llash-2,8 ball)**

- 1) Rossiya, 2) Xitoy, 3) Janubiy Koreya, 4) Yaponiya, 5) Amerika Qo'shma Shtatlari.  
 A) 1, 5;      B) 1, 2, 3;      C) 2, 3, 4, 5;      D) 1, 2, 3, 4, 5.

**11. Quyidagi atamalarni izohi bilan moslashtiring. (Qo'llash-2,8 ball)**

- 1) Iqtisodiyot;      2) Texnika;      3) Yarmarka.

- a) mamlakat aholisini barcha zarur narsalar bilan ta'minlovchi xo'jalik, ishlab chiqarish.  
 b) inson mehnatini yengillashtiradigan va mehnat unumdarligini oshirishga xizmat qiladigan ishlab chiqarish qurollari, vositalari;  
 c) Tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilarning ko'rgazmaga qo'yilgan mahsulotlarni ko'tara sotish va sotib olish maqsadida o'tkaziladigan yig'ini.

- A) 1- b, 2- c, 3- a;      B) 1- b, 2- c, 3- a;      C) 1-c, 2-a, 3-b;      D) 1- a, 2- b, 3- c.

**12. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga ha yoki yo'q deb javob bering .(Qo'llash – 2,8 ball)**

Nº	Mulohaza uchun savol	H a	Yo'q
1.	1-oktabr sanasi «O'zbek tili bayrami kuni» deb belgilandi.		
2.	1990-yildan boshlab respublikamizda Navro'z qayta tiklandi va 21-mart Navro'z milliy xalq bayrami hamda dam olish kuni deb belgilandi.		
3.	O'zbekiston 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi.		
4.	Respublikamiz umumiyo'rta ta'lif maktablarida o'qitish o'zbek tilidan tashqari, yana 7 tilda (qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz va kareys tillarida) olib borilmoqda.		

- A) 1- Ha; 2- yo'q; 3- ha; 4- yo'q;      B) 1- Yo'q; 2- ha; 3- ha; 4- yo'q;  
 C) 1- Ha; 2- yo'q; 3- yo'q; 4- ha;      D) 1- Yo'q; 2- yo'q; 3- ha; 4- ha.

**13. Mintaqaviy mojarolarning insoniyat tinchligiga soladigan xavflarini aniqlang. (Qo'llash– 2,8 ball)**

- 1) ular qo'shni davlatlardagi tinchlikni xavf ostiga qo'yadi;  
 2) fuqarolar urushi qochoqlar muammosini keltirib chiqaradi;  
 3) atrof-muhitni ifloslanishiga olib keladi;  
 4) hududlarda giyohvand moddalar aylanmasini ko'paytiradi;  
 5) xalqaro terrorchilik kuchaytiradi;

6) diniy aqidaparstlik eskirgan diniy qoidalarni saqlab qolish uchun kurashadi;

7) noqonuniy qurol-yarog‘ savdosining avj olishiga olib keladi.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7;      B) 1, 2, 4, 5, 6, 7;      C) 1, 2, 4, 5, 7;      D) 2, 3, 4, 6.

**14. BMT minbarida turib dunyo jamoatchiligiga:** «Orol muammosi – bu, ushbu mintaqada yashayotgan, BMTdek nufuzli tashkilotga umid bilan yordam so‘rab murojaat qilayotgan millionlab odamlarning muammosidir» deya nutq so‘zlagan(a) va «Sizlar endi O‘zbekistonning «oltin fondi» bo‘ldingiz. Yoshlarimiz orasidan Xorazmiylar, Abu Ali ibn Sinolar, Ulug‘beklar chiqishiga asoslar bor» deb iftixor bilan so‘zlagan.

**Harflar o‘rnidagi shaxslarni aniqlang. (Qo‘llash – 2,8 ball)**

A) a- Islom Karimov va b- Shavkat Mirziyoyev;

B) a- A. Guterrishva va b- Shavkat Mirziyoyev;

C) a- Shavkat Mirziyoyev va b- Islom Karimov;

D) a- Sharof Rashodov va b- Islom Karimov.

**15. Quyidagi jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga mos keluvchi**

**ma’lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang. (Mulohaza – 4 ball)**

Voqeа	Yil	Tarixiy shaxs
Qachon va kim tomonidan «harakatlar strategiyasi» e’lon qilingan.	a	b
Vafot etgan.	2016-yilning 2-sentabrida	c

1) 2010-yilda;      2) 2016-yilda;      3) 2017-yilda;

4) Sharof Rashidov;      5) Shavkat Mirziyozev;      6) Islom Karimov.

- A) a - 2, b - 4, c - 6;      B) a - 3, b - 5, c - 6;      C) a - 1, b - 5, c - 4;      D) a - 3, b - 6, c - 4.